

Hamkorlar

Hamkorlik doirasida bajarilayotgan ishlar

«Irrigatsiya va melioratsiya» kafedrasida soha bo'yicha ishlab-chiqarish bilan uzviy aloqasini ta'minlash, talabalarga bilim berish va professor-o'qituvchilar malakasini oshirish hamda kafedra moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, shuningdek o'quv va ishlab-chiqarish amaliyotini tashkil qilish bo'yicha Chirchiq-Oxangaron ITHB, TIQXMMI qoshidagi ISMITI, Moliya vazirligi qoshidagi SEMHYa jamg'armasi, "UZGIP" MChJ, "O'zsvuvloyiha" AJ bilan xamkorlik qilmoqda.

Kafedra mutaxassislik ixtisoslashuviga mos zamonaviy korxonalar: Chirchiq - Oxangaron irrigatsiya tizimi xavza boshqarmasi va TIQXMMI qoshidagi Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy - tadqiqot instituti bilan ilmiy-texnologik muammolar va ularni yechimini izlash bo'yicha innovatsion xamkorlik yo'lga qo'yilgan.

Yevropa Ittifoqining Erasmus Mundus dasturi bo'yicha 2017 yilda Frantsiyaning Lill Universiteti (Universite de Lille) da kafedra xodimi Bekmirzaev G'. (ilmiy rahbarlari: Lill 1 Universiteti professori OUDDANE Baghdad va XAMIDOV Muxammadxon Xamidovich, TIQXMMI professori) "Sho'rlangan tuproqlar va qurg'oqchilik sharoitlarida sabzavot o'simliklarining o'sib rivojlanishi, mineral tarkibi, fotosintez jarayoni va suv iste'moliga ta'siri" ("Effect of saline soils and drought conditions on growth, mineral composition, photosynthesis and water relations of vegetable crops") mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi va PhD diplomini oldi.

Erasmus+ loyihasi Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti va Gumboldt nomidagi Berlin universiteti (Germaniya) kredit mobillik loyihasi doirasida tanlov g'olibi "Irrigatsiya va melioratsiya" kafedrasida tayanch doktoranti J.K.Ishchanov va assistenti I.Urazbaev 2016 yilning 16 aprelidan 14 iyuligacha Germaniyaning Gumboldt nomidagi Berlin universiteti o'z malakalarini oshirdilar.



Loyiha koordinatori dok. Mattias Parske Universitetda talabalar va tadqiqotchilar uchun yaratilgan imkoniyatlar haqida ma'lumot bermoqda.



Prof. Klauss Eysenakning taklifiga binoan "Long Night of the Sciences" doirasidagi iqlim o'zgarishni qanday uslubda boshqarish haqidagi "game" da qatnashish jarayoni



Kafedraning soha bo'yicha ishlab chiqarish tashkilotlari bilan hamkorligidagi ma'ruzasi jarayoni

